

Fir'avn qasrida



15:00 / 29.08.2021 2939

Nil daryosi sohillarida Fir'avnning ko'p qasrlari bor edi. Fir'avn qasrdan qasrga ko'chib, nil sohilidagi qasrlarida sayr qilar edi. Bir kun u oyoqlari tagida shovillayotgan daryoga tikilib o'tirardi. U bilan birga Misr malikasi ham bor edi.

U podshoh bilan birga sayr qilib yursa, banogoh to'lqinlarquchog'ida allalanib kelayotgan sandiqqa ko'zlari tushdi.

- Ey hojam, anavi sandiqni ko'rayapsizmi?- dedi Misr malikasi.

Fir'avn e'tiborsiz javob berdi:

- Nilda sandiq nima qiladi? U nilga tushib qolgan bir yog'ochdir.

- Yo'q hojam, aniq sandiq oqib kelayapti, - e'tiroz bildirdi malika.

Bu orada sandiq ular oldiga ancha yaqin kelib qolgandi. Atrofdagilar ham - «Ha, ha sandiq ekan»,- deyishdi. Shoh xizmatkorlaridan biriga sandiqni tutib kelishni buyurdi. Xizmatkorlardan biri borib, sandiqni chiqardi. Sandiq ochilgan edi, uning ichida do'ndiq bir go'dak jilmayib yotardi. Uni ochgan kishilar hayratdan yoqa ushlab qolishdi. Hamma uni qo'liga olib tomosha qilib chiqdi. Fir'avn ham hayron edi. Xizmatkorlardan ba'zisi: «Bu bola bani Isroildan, shoh uni albatta qatl qiladi» dedi. Lekin Misr malikasi bolani yoqtirib qolgandi. U qo'lidagi jajji vujudni bag'riga bosib, o'pib erkalar ekan, podshoh huzuridan shafolat qilishini so'rab shunday dedi:

- «(Bu bola) Men uchun ham, siz uchun ham, koʻz quvonchidir. Uni oʻldirmanglar. Shoyadki, uning bizlarga nafi tegsa yoki uni bola qilib olsak».

Shunday qilib Muso ibn Imron Fir'avn qasriga kirib olgan edi. Fir'avn jallodlari shuncha tirishsalar ham, u yashab qoldi. Vaholanki, ular qargʻadek oʻtkir koʻzlari bilan, chumolidek sezgir burunlari bilan ham unga yoʻl topa olishmagan edi.

Alloh taolo irodasiga muvofiq goʻdaklar jallodi Fir'avn kelajakda uning mol-mulkini tortib oladigan goʻdakni oʻz uyida tarbiya qila boshladi. Bechora Fir'avn...

Shunday qilib, shoh ham, uning vaziri Homon ham, butun qoʻshinlari ham qattiq yanglishdilar. «Bas, uni Fir'avn xonadoni (oʻsib-ulgʻaygach) oʻzlariga dushman va gʻam-tashvish boʻlishi uchun tutib oldilar. Albatta Fir'avn, Homon va ularning lashkarlari hato qiluvchi boʻldilar».

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad